



## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLASH ZANJIRIDA KOOPERATSION ALOQALARNI MUSTAHKAMLASH YO'LLARI

<sup>1</sup>Yusupov Muxiddin Soatovich

Oriental universiteti dotsenti, PhD

<sup>2</sup>Ismoilova Gulchiroy Tolliboy qizi

Amaliy fanlar universiteti, PhD

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7943545>

### ARTICLE INFO

Received: 08<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 16<sup>th</sup> May 2023

Online: 17<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Oziq-ovqat ta'minoti; qishloq xo'jaligi xomashyosi; tutash tarmoqlar; birlamchi va chuqur qayta ishlash; qo'shilgan qiymat zanjiri; oziq-ovqat mahsulotlari; kooperatsion hamkorlik; agrosanoat kooperativlari; tashkiliy tuzilish; ustav kapitali; foydani taqsimlash; iqtisodiy manfaatdorlik; xorij tajribasi.

### ABSTRACT

*Maqolada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash zanjirida kooperatsion tuzilmalarni rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Shu bilan zanjirda kooperatsion aloqalar vositasida integratsion jarayonlarni rivojlantirishning bozor tamoyillariga mos keluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan masalalarga e'tibor qaratilgan.*

### Kirish

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish va chuqur qayta ishlash asosida oziq-ovqat ta'minoti zanjirini rivojlantirish hamda xavfsizligini mustahkamlash masalalari butun dunyoda bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkilotiga (FAO) ko'ra, "pandemiya jahon miqyosida oziq-ovqat yetkazib berish zanjirida uzilishlarni yuzaga keltirib, tizimda beqarorlikni keltirib chiqargan va oqibatda kambag'al, qashshoq aholiga katta zarar yetkazgan. Bu ayniqsa oziq-ovqat ta'minotining muqobil manbalariga ega bo'lmagan mamlakatlarga katta xavf soladi" [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi"da belgilanganidek, "qo'shilgan qiymat zanjirining rivojlanishi qishloq xo'jaligi raqobatdoshligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mahsulotlarni daladan yakuniy iste'molchigacha yetkazib berish, ya'ni yig'ish, tashish, saqlash, qayta ishlash, qadoqlash va sertifikatlash zanjirida integratsion aloqalarning yetarli taraqqiy etmaganligi yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini cheklamoqda" [2].



Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida chuqur qayta ishlash zanjirini rivojlantirishning ahamiyati ortib bormoqda. Biroq, bu zanjirda kooperasion aloqalar vositasida integratsion jarayonlarni rivojlantirishning bozor tamoyillariga mos keluvchi tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha hal etilishi lozim bo'lgan masalalar mavjud bo'lib, mazkur yo'nalishda tadqiqotlar olib borish muhim hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili**

Tadqiqotlarga ko'ra klaster, jumladan agrosanoat klasterini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish yuzasidan bir qator xalqaro tashkilotlar, xorijlik va mamlakatimiz olimlari ilmiy izlanishlar olib borishgan. Jumladan, Pindyck, Robert S., Daniel L., B.T. Salimov, M.S.Yusupov, A.S.Yusupov, I.A.Minakov, I.S.Malseva va boshqa tadqiqotchilarni keltirish mumkin [4; 5; 6; 7; 9; 10; 11].

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'molga yetkazib berish zanjirida agrosanoat kooperativlarini rivojlantirish hamda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoati tarmoqlarini kooperativlashtirish borasida ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlarning ilmiy ishlari mazkur tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslarini tashkil etadi. Tadqiqotda abstrakt va analitik mushohada, normativ va pozitiv tahlil, qiyosiy va omilli tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

### **Tahlil va natijalar**

Oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish zanjirida integratsion aloqalarni rivojlantirish yo'nalishlaridan biri – bu fermer va dehqon xo'jaliklarining ulush qo'shish asosida ustav kapitali shakllantiriladigan kooperativlardir. Vikipediyada kooperativga quyidagicha ta'rif berilgan: "Kooperativ o'z a'zolarining moddiy va boshqa ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq umumiy iqtisodiy va ijtimoiy maqsadlarga erishish uchun tuzilgan, shu maqsadlar uchun tuzilgan jamg'armaga o'z pay ulushini kiritgan, tashkilotning faoliyati bilan bog'liq xatarlar va natijalarni tan oluvchi, pay egasi sifatida uning faoliyatida va demokratik boshqaruvida ishtirok etuvchi jismoniy shaxslar va tashkilotlar birlashmasining a'zoligiga asoslangan tashkilotdir" [3].

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida qayta ishlash zanjirida kooperatsiyaning afzalliklari bir qator omillar ta'sirida shakllanadi. Xususan, iqtisodiyotda ishlab chiqarish hajmining "ko'lam samarasi" mahsulot tannarxiga (o'rtacha xarajatlarga) va iqtisodiy samaradorlikka kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu nazariyaga ko'ra, uzoq muddatli oraliqda mahsulot birligiga nisbatan o'rtacha xarajatlarni kamaytirish va foydani maksimallashtirish uchun ishlab chiqarish hajmini ma'lum chegaragacha oshirib borish talab etiladi. Ya'ni, bunda jami ishlab chiqarish xarajatlarining oshishiga nisbatan mahsulot hajmini oshish sur'atlari yuqoriligi ta'sirida mahsulot birligiga nisbatan o'rtacha xarajatlar pasayib borib, "ijobiy ko'lam samarasi" yuzaga keladi [4].

Ko'p hollarda yirik ishlab chiqarish kichik hajmli ishlab chiqarishga nisbatan bir qator ustunliklarga ega bo'ladi. Ayrim iqtisodchilarning fikricha, meva-sabzavotlarni qayta ishlashda "zamonaviy korxonalar rentabelli bo'lishi uchun mavsum davomida kamida 5 ming tonna meva-sabzavot xomashyosini qayta ishlashi lozim. Undan kam miqdordagi xomashyoni qayta ishlash foydali emas. O'rtacha hosildorlik 25 tonna/ga bo'lganda bunday korxonalar 200 gektar maydonning hosilini qabul qilib olishga qodir bo'ladi. Juda ko'p turdagi sanoat jihozlarning ishlab chiqarish quvvati sutkasiga 150-600 tonna xomashyoni qayta ishlashga



yetadi [5]. Agar 2020 yilda meva va rezavorlarning respublika bo'yicha o'rtacha hosildorligi gektariga 11,9 tonna (uzumda 15,3 tonna) ekanligini e'tiborga olsak, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi o'z-o'zini sifatli xomashyo bilan ta'minlashi uchun 420 gektar bog' maydoniga (uzumchilikda 326 gektar) ega bo'lishi lozimligini ko'ramiz.

Ta'kidlash joizki, fermer xo'jaligi uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va bir vaqtning o'zida qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi yirik ishlab chiqarishni tashkil etish og'ir kechishi mumkin. O'zbekistonda meva va sabzavotlarning hosildorligi nisbatan past, bu ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan xo'jaliklar ekin maydonlari esa unchalik katta emas. Respublikamizda 2019 yili meva va rezavorlarning 58,2, uzumning 55,3 va sabzavotlarning 66,7 foizi dehqon va tomorqa xo'jaliklari tomonidan yetishtirildi. Ammo ularning o'rtacha hajmi 1 gektardan oshmaydi. Bu meva-sabzavot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan har bir fermer, ayniqsa, dehqon xo'jaligi qayta ishlash uchun o'z quvvatlariga ega bo'lishi iqtisodiy jihatdan samarasiz ekanligini anglatadi. Hatto yirikroq xo'jaliklar o'zlarida qayta ishlash jihozlarini o'rnatsalar ham o'z xomashyolari bilan buni uddalashlari qiyin. Qayta ishlash korxonasi bitta fermer xo'jaligiga tegishli bo'lishi ham mumkin, ammo bunda u ishlab chiqarishni tashqaridan xomashyo bilan ta'minlashiga, yoki boshqacha qilib aytganda, bozordan xomashyo sotib olishiga to'g'ri keladi.

Kichik hajmli bu xo'jaliklar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga qodir emasliklari sababli, yetishtirilgan mahsulot asosan yangi uzilgan holida dehqon bozorlari orqali realizatsiya qilinadi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yangi uzilgan holida (ho'l meva-sabzavotlar shaklida) sotish dehqon va fermerlarni yetarlicha daromad bilan ta'minlashi gumon. Mahsulotlarni "yetishtirish-saqlash-qayta ishlash-sotish" zanjirida asosiy foydani xomashyo yetkazib beruvchilar emas, balki tayyorlov, qayta ishlash va sotish bo'g'inidagi firmalar oladi. Shu sababdan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi xo'jaliklar va qayta ishlash korxonalarini o'rtasida o'zaro hamkorlik va kooperatsiyaga asoslangan chuqur hamda mustahkam integratsion aloqalarni kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqdaki, bunday integratsiyalashuvdan ham fermer va dehqon xo'jaliklari, ham qayta ishlash sanoati korxonalarini manfaat ko'radi.

O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyundagi "Kooperatsiya to'g'risida"gi qonuni yuridik va jismoniy shaxslarga kooperativga ixtiyoriy ravishda kirish va undan erkin chiqish, kooperativni boshqarishda ishtirok etish huquqini, kooperativlarni mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar bilan teng huquqlilik asosida rivojlantirish, jamoa bo'lib xo'jalik yuritish mustaqilligini hamda ustavda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan qarorlar qabul qilishda kooperativning mustaqilligini kafolatlaydi. Ushbu qonunning 1-moddasida keltirilganidek: "Kooperatsiya jismoniy va yuridik shaxslarning iqtisodiy hamda ijtimoiy faoliyatning turli sohalarida umumiy maqsadlarga erishish uchun tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilgan, mulkning shirkat (jamoa) shakliga asoslangan ixtiyoriy birlashmalaridan (kooperativlaridan) iboratdir" [6].

Kooperativ o'z a'zolarining iqtisodiy manfaatlari bilan chambarchas bog'langan. Uning asosida kooperatsiyaning quyidagi asosiy tamoyillari yotadi: kooperativga a'zolik va undan chiqishning ixtiyoriyligi; o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari; foyda olishni bosh maqsad qilib qo'yilmasligi, ya'ni kooperativ o'z a'zolariga yordam berish maqsadida tuziladi; boshqaruvning demokratik xususiyati; a'zolarining kooperativ ishlarida to'liq ishtiroki va



uning natijalarini o'zaro nazorat qilish imkoniyati; yakuniy daromadni (foydani) kooperativ a'zolari o'rtasida ularning mulkiy paylariga muvofiq taqsimlanishi; a'zolarining kooperativ faoliyati natijalari bo'yicha kollektiv javobgarligi va mas'uliyati; a'zolarining o'z tasarruflaridagi moddiy, mehnat va boshqa resurslarni birlashtirish orqali moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga intilishi; milliy va xalqaro bozorlardagi kuchli raqobat muhitiga hamda monopolistik tuzilmalarning bosim o'tkazishiga birgalikda bardosh berish uchun hamkorlik qilish.


Kooperatsiyaga xos bo'lgan bu ijobiy xususiyatlar ta'sirida dunyo bo'ylab iqtisodiy integratsiyalashuvning bu shakli tobora keng tarqalib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda "qishloq xo'jaligida kooperativlar XIX-XX asrlarda ayniqsa keng rivojlanib, dunyoning barcha mintaqalarini qamrab ola boshladi. Ular mahsulot ishlab chiqarish, uni sotish va xizmatlar ko'rsatishning ko'plab sohalariga kirib bordi va mustahkam o'rin egalladi. Ma'lumotlarga qaraganda 2000-yillarning boshiga kelib dehqonchilik mahsulotlaridan g'alla, meva va sabzavotlar sotishda kooperativlarning ulushi Daniyada 47-90 %ni, Niderlandiyada 65-82 %ni, Germaniyada 30-65 %ni, Fransiyada 35-75 %ni va Buyuk Britaniyada 19-25 %ni tashkil etgan. Chorvachilik mahsulotlaridan jami sut va sut mahsulotlari sotishda kooperativlarning ulushi Daniyada 91 %ni, Niderlandiyada 84 %ni, Germaniyada 65 %ni, Fransiyada 50 %ni va AQShda 82 %ni tashkil etgan [7].

Hozirgi vaqtda jahonda 700 millionga yaqin kooperativlar faoliyat ko'rsatib, Xalqaro kooperativlar [alyansi](#) 76 mamlakatdan 192 ta milliy kooperativlar ittifoqlarini o'z ichiga oladi [3].

Bizda qishloq xo'jaligida kooperativ deyilganda shirkat xo'jaligini tushunish odatga kirgan. Aslida esa kooperativ fermerlar faoliyatining faqat ayrim tomonlariga tegishli bo'lishi mumkin. Masalan, Isroilda Moshavlar fermerlarning xususiy kooperativlari hisoblanib, ularga mahsulotni hamkorlikda qayta ishlash, sotishni tashkil qilishda, zaruriy texnikalar va moddiy resurslar sotib olish, mutaxassislarni yollash hamda konsalting xizmatlari ko'rsatishda yordam beradi [8].

Kooperativlarni tashkil etishda ularning tashkiliy-funksional tuzilmasi muhim ahamiyatga ega. Chunki u kooperativni boshqarish, a'zolar o'rtasida munosabatlarni tartibga solish hamda foydani taqsimlash kabi masalalarni hal etishga imkon yaratadi. Bizningcha kooperativning tashkiliy-funksional tuzilmasi 1-rasmda keltirilgan tartibda bo'lishi maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son [qaroriga](#) asosan Jizzax, Samarqand, Toshkent va Farg'ona viloyatlarining 8 ta tumanida jami 41 ta meva-sabzavotchilik yo'nalishidagi qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tomonidan kam ta'minlangan oilalar bandligini ta'minlash maqsadida xalqaro moliya institutlari mablag'larini jalb etgan holda 2020 yilda Farg'ona, Andijon va Namangan viloyatlarining 22 ta tumanida 31 ta, 2021 yilda respublika bo'yicha 100 ta qishloq xo'jaligi birlashmalari tashkil etilishi ko'zda tutilgan" [9].



**3.11-rasm. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha kooperativning tashkiliy-funksional tuzilmasi**

**1-rasm. Meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha kooperativlarni tashkiliy-funksional modeli tuzilmasi**

Manba: muallif ishlanmasi

**Xulosa va tavsiyalar**

Fikrimizcha, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sanoat usulida qayta ishlash zanjirida kooperativlarni ikki usulda tashkil etish mumkin:

- birinchi holatda kooperativ foyda olish maqsadini ko'zlamaydi, balki kooperativ a'zolari sanaladigan dehqon va fermerlarning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tannarx bahosida qayta ishlab beradi. Fermer va dehqonlar esa qayta ishlangan mahsulotlarni mustaqil sotib yuqori foyda oladi va kooperativni saqlash xarajatlarining bir qismini ustav



kapitalidagi ulushiga yoki jami qayta ishlangan mahsulotlardagi salmog'iga mutanosib qoplaydi;

- ikkinchi usulda fermer va dehqonlar xomashyoni tannarx bo'yicha kooperativga sotadi, kooperativ ularni qayta ishlab sotadi va olingan foyda soliqlar hamda boshqa majburiy to'lovlar to'lab bo'lingandan so'ng ta'sischi o'rtasida ustav kapitalidagi ulushiga mutanosib taqsimlanadi. Fermer va dehqon xo'jaliklari bir vaqtning o'zida kooperativning mulkdorlari bo'lgani sababli, ular xomashyo va tayyor mahsulot sifatini oshirishdan manfaatdor bo'ladi. Shuningdek, mahsulotni qayta ishlab sotish orqali ko'proq foyda ko'rish va zanjirda qo'shilgan qiymatni oshirish imkoniyati yaratiladi.

Jahon tajribalari va ichki imkoniyatlardan kelib chiqib respublikamizda kooperativlarni yanada keng ko'lamda rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish joiz:

1. Kooperativlarning asosiy vazifalaridan biri qishloq xo'jaligi mahsulotlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki qayta ishlangan holda sotish ekanligidan kelib chiqadigan bo'lsak, ular uchun respublikamizning turli hududlari hamda xorijiy mamlakatlarda savdo uylari va vakolatxonalar ochish, ichki va tashqi bozorlarni o'rganish bo'yicha marketing tadqiqotlarini yo'lga qo'yish, xalqaro oziq-ovqat yarmarkalari hamda ko'rgazmalarda muntazam ishtirok etish, bunda xorijlik sheriklar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi.

2. Kooperativlar uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yil davomida bir xil temperaturada saqlash imkonini beruvchi sovutkichli omborlar, zamonaviy va kichik hajmli qayta ishlash korxonalari, qulay, ekologik talablarga javob beruvchi tara va idishlar yasovchi sexlar hamda transport vositalari va logistika tizimlarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

## References:

1. [www.fao.org/3/ca8388en/CA8388EN.pdf](http://www.fao.org/3/ca8388en/CA8388EN.pdf).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktyabrdagi PF-5853-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan Strategiyasi". [www.lex.uz](http://www.lex.uz).
3. <http://ru.wikipedia.org/wiki/Kooperativ>.
4. Pindyck, Robert S., Daniel I. Rubinfeld. Microeconomics. Global Edition. –Copyright 2018, Pearson Education Limited 2018. P. 231.
5. B.T. Salimov, M.S.Yusupov, A.S.Yusupov. O'zbekiston agrosanoat majmuasining jahon agrar va oziq-ovqat bozorlariga integratsiyalashuvi: ilmiy monografiya. -T.: Iqtisodiyot, 2013. – 78 b.
6. O'zbekiston Respublikasining 1991 yil 14 iyundagi "Kooperatsiya to'g'risida"gi qonuni// "Xalq so'zi" gazetasi, 1991 yil 15 iyun.
7. E.B. Серова. Аграрная экономика. –М.: ГУ ВШЭ, 1999. -141 с.
8. M.Yusupov. Agrosanoat integratsiyasi. O'quv qo'llanma. –T.: Fan va texnologiya, 2015. – 30 b.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 14 martdagi "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4239-son qarori.
10. И.А.Минаков. Кооперация и агропромышленная интеграция: учебник. – СПб.: Издательство «Лань», 2016. -352 с.



11. И.С.Мальцева. Кооперация и агропромышленная интеграция [Электронный ресурс]: учебное пособие. – Сыктывкар: СЛИ, 2013. – 88 с.